

BOSHLANG‘ICH SINFLARGA KELISHIK SHAKLLARINI TUSHUNTIRISH USULLARI

A’zamjonova Farangiz Akmaljon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1508245>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi kelishik shakllarini boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga qay tarzda tushuntirish usullari o‘rgatiladi. Kelishik shakllari qaysi bo‘limda o‘rganilishi, so‘roqlari, gapda qanday vazifalarda kelishi o‘rganiladi. Kelishik qo‘srimchalari, ulardagи jihatlar va til vositalarining ahamiyati haqida so‘z boradi. Yangi metodlar va usullar bilan tanishtiriladi.

Kalit so‘zlar: Kelishik qo‘srimchalari, turlanish, so‘z turkumi, gap bo‘lagi, metod, usul, qaratqich kelishigi, ma’nodosh so‘z, ma’nodosh qo‘srimcha.

METHODS FOR EXPLAINING CONJUGATIONS TO PRIMARY GRADES

Abstract. This article teaches how to explain the forms of agreement in the Uzbek language to primary school students. It studies in which section the forms of agreement are studied, their questions, and what functions they perform in a sentence. It discusses the importance of agreement suffixes, their aspects, and language tools. It introduces new methods and techniques.

Keywords: Coordinative suffixes, variation, word class, part of speech, method, method, accusative case, synonym, synonym suffix.

МЕТОДЫ ОБЪЯСНЕНИЯ СПРЯЖЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация. Данная статья учит объяснять узбекские спряжения учащимся начальной школы. Изучается, в каком разделе изучаются формы согласия, вопросы и какие функции они имеют в предложении. Рассказывается о значении наречий, их аспектах и языковых средствах. Внедряются новые методы и технологии.

Ключевые слова: Наречия спряжения, классификация, группа слов, придаточное, прием, прием, указательное согласие, осмыслившее слово, осмыслившее наречие.

Boshlang‘ich sinflarda har bir mavzu alohida ahamiyat kasb etadi. Gap bo‘laklari, tinish belgilar, so‘z turkumlari ona tilining turli xil bo‘limlarida o‘rganiladi. Masalan: tinish belgilari – punktuatsiyada o‘rganilsa, so‘z turkumlari – morfologiyada o‘rganiladi va bu mavzularni boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tez va oson tushuntirish uchun turli xil metodlar kerak boladi.

Ushbu maqolada esa kelishik shakllarini boshlang‘ich sinflarga qay tarzda, qaysi metodlar yordamida oson o‘rgatishni tushuntirib o‘tamiz.

Kelishik — ot yoki otlashgan so‘zning boshqa so‘zlar bilan aloqasini ko‘rsatuvchi grammatik shakl. U ot shakli ekanligi holda, birikma yoki gap tarkibida uning boshqa so‘zga tobelanishini ko‘rsatadi. Bu sintaktik munosabat kelishik qo‘srimchasingin o‘zi bilan, ko‘makchi yoki ko‘makchi vazifasidagi so‘z bilan birga ifoda topishi ham mumkin.

Kelishiklar soni turli tillarda har xildir. O‘zbek tilida 6 ta kelishik bo‘lib, ular bosh (qo‘srimchasi), qaratqich (qo‘srimchasi: ning), tushum (qo‘srimchasi: -ni), jo‘nalish (qo‘srimchasi: -ga, -ka, -qa), o‘rin-payt (qo‘srimchasi: -da), chiqish (qo‘srimchasi: -dan) kelishiklaridan iborat. Shulardan qaratqich kelishigi ot tomonidan boshqarilib, hokim so‘z egalik qo‘srimchasini olib keladi: kitobning varag‘i. Qolgan tushum, jo‘nalish, o‘rin, chiqish kelishikli otlar fe’l yoki sifat tomonidan boshqariladi: kitobni varaqladi, kitobga qaradi, kitobda yozilgan, kitobdan olindi.

Ismlarning egalik qo‘srimchalari bilan shaxs va sonda hamda kelishik qo‘srimchalari bilan o‘zgarishi turlanish deyiladi.

Kelishiklar jadvali:

T/R	Kelishik nomi	Qo‘srimchasi	So‘rog‘i
1	Bosh kelishik		Kim? Nima?
2	Qaratqich kelishigi	-ning	Kimning? Nimaning?
3	Tushum kelishigi	-ni	Kimni? Nimani?
4	Jo‘nalish kelishigi	-ga -ka -qa	Kimga (-qa,-ka)? Nimaga (-qa, -ka)?
5	O‘rin-payt kelishigi	-da	Kimda? Nimada?
6	Chiqish kelishigi	-dan	Kimdan? Nimadan?

Bosh kelishik shakli. Ismlarning bosh kelishik shakli maxsus qo‘srimchaga ega emas.

Bu shakl kim?, nima?, qayer? so‘roqlarining biriga javob bo‘ladi va gapda ko‘pincha ega, ot, kesim, undalma vazifalarida keladi. Masalan: Men oddiy bir qizchaman.

Qaratqich kelishigi shakli. Qaratqich kelishigi shaklidagi so‘z qaratqich, qaratqichga bog‘lanib kelgan so‘z esa qaralmish deyiladi.

Qaratqich kelishigi qaratqichni qaralmishga tobelashtirib bog‘lab keladi va qaralmishda ifodalangan narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatlarning qaratqich shaklidagi ismlarga

qarashli ekanini bildiradi. Qaratqich va qaralmish yonma-yon kelganda ko‘p hollarda qaratqich kelishigi tushib qolishi mumkin. Lekin qaratqich va qaralmish o‘rtasida boshqa so‘z qo‘llansa, qaratqich qo‘shimchasi tiklanadi. Shuningdek, qaratqich kelishigi atoqli otlar, olmoshlar, sifatdoshlarga qo‘shilganda tushib qolmaydi.

Tushum kelishigi shakli. Tushum kelishigi shaklini olgan so‘z doimo o‘timli fe’lga bog‘lanadi. Tushum kelishigidagi so‘z bilan o‘timli fe’l yonma-yon turganda, ko‘pincha tushum kelishigi qo‘shimchasi tushib qoladi. Tushum kelishigidagi so‘z bilan o‘timli fe’l o‘rtasida boshqa bir so‘z ishlatsa, tushum kelishigidagi so‘z atoqli ot, olmosh yoki sifatdosh bo‘lsa, tushum kelishigi qo‘shimchasi tushib qolmaydi. Tushum kelishigidagi so‘z gapda doimo to‘ldiruvchi vazifasida keladi

Egalik qo‘shimchasini olgan ismlarga bog‘lanuvchi so‘z qaratqich kelishigi shaklida, o‘timli fe’llarga bog‘lanuvchi so‘z tushum kelishigi shaklida keladi.

Jo‘nalish kelishigi shakli. Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi o‘rin-joy otlariga qo‘shilib, qayerga? so‘rog‘iga javob bo‘ladi va gapda o‘rin holi vazifasida keladi. Payt otlariga qo‘shilib, qachon? so‘rog‘iga javob bo‘ladi va gapda payt holi vazifasini bajaradi. Shaxs va narsa otlariga qo‘shilib, kimga? nimaga? so‘rog‘iga javob bo‘ladi va gapda to‘ldiruvchi vazifasida qo‘llanadi.

Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi k va q tovushlari bilan tugagan so‘zlarga qo‘shilganda, -ka, -qa shaklida talaffuz qilinadi va shunday yoziladi.

O‘rin-payt kelishigi shakli. O‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi o‘rin-joy otlariga qo‘shilib, qayerda? so‘rog‘iga javob bo‘ladi va hokim qismda ifodalangan harakatning o‘rnini bildiradi.

Bunday so‘zlar gapda payt holi vazifasida keladi.

Chiqish kelishigi shakli. Chiqish kelishigi qo‘shimchasi o‘rin-joy otlariga qo‘shilib, qayerdan? so‘rog‘iga javob bo‘ladi va o‘rin holi vazifasini bajaradi. Payt otlariga qo‘shilib, qachon so‘rog‘iga javob bo‘ladi va payt holi vazifasida keladi.

Ba‘zan tushum kelishigi o‘rnida chiqish kelishigi shakli ishlatalishi mumkin. Lekin ularning ma’nosida ma’lum farq bor. Tushum kelishigidagi so‘z butunni, chiqish kelishigidagi so‘z qismni bildiradi. Masalan: uzumni (tushum kelishigida) oling – butunni, uzumdan (chiqish kelishigida) oling – qismni ifodalaydi.


Kelishik shakllarini boshlang‘ich sinflarga o‘rgatayotganda turli xil usullar va metodlardan foydalananib tushuntirilsa, o‘quvchilar mavzuni tez va to‘liq holda o‘zlashtiradilar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun mashq va ularning bajarilish usullari, turli xil metodlar bilan:

4-sinf ona tili darsligidan

“So‘zdan so‘z yasang” metodi asosidagi topshiriq. Berilgan so‘zda ishtirok etgan harflardan foydalanib, yangi so‘zlar hosil qiling. Tuzgan so‘zlaringizdan ikkita gap tuzing. Bosh bo‘laklarning tagiga chizing.

Namuna: Konstitutsiya



“Sinkveyn” metodi.

Quyosh soziga “sinkveyn” tuzing.

1. Quyosh –.....
2. Qanday ? –.....
3. Nima qiladi? –
4. Gap –
5. Ma’nodosh soz –

Mashq. Maqollarni ko‘chiring. Tushum kelishigidagi so‘zlarni belgilang.

1. Bilmaganni bildim, dema,
- Qilmaganni qildim, dema.
2. To‘g‘ri oshini, egri boshini yer.
3. Haqni nohaq etma,
- Nohaqni haq etma.
4. Vatanni sotgan – er bolmas.

Jadvalni namunadagidek to‘ldiring.

Diyora	bugun	maktabga	bordi
		-ga	
		-ka	
		-ka	
		-qa	
		-ga	

Mashq. Nuqtalar o‘rniga –ga, -ka, -qa qo‘shimchalaridan mosini qo‘ying.

1. Bizni bag‘ring... olganing uchun rahmat.
2. Feruza ekkan nihollarning ko‘k... bo‘y cho‘zib yashnab turganini ko‘rdi.
3. Ravshan kaptarlarni osmon... uchirib yubordi.
4. Jasur qo‘zichoq..., buzoq... o‘t berdi.
5. Kema qirg‘oq... yaqinlashdi.
6. Singlim tovuq... don berdi.

“Tahlil qolipi” jadvali. Kelishik qo‘shimchasini olgan so‘zlarni quyida keltirilgan jadvalga yozib, so‘zlarda ishtirok etgan egalik va kelishik qo‘shimchalarini belgilab, tahlil qiling.

So‘zlar	O‘rmonda	Bolalarini	Yelkasiga	Qirlarda
1-shaxs birlik				
2-sh birl				
3-sh birl	+			
1-sh ko‘plik				
2-sh ko‘pl				
3-sh ko‘pl				
Bosh kelishik				
Qaratqich k				
Tushum k				
Jo‘nalish k				
O‘rin-payt k	+			
Chiqish k				

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ona tili darslarida kelishik qo‘sishimchalarini o‘rgatish bo‘yicha metodlar natijasida bir qancha yutuqlarga ega bo‘ldik va shu qatorda muhokamaga ham o‘rinli savollar tug‘ildi. Metodlar doirasida kelishik qo‘sishimchalarini o‘qitish o‘quvchilar uchun qay darajada muhim degan savolga to‘xtalsak. Tushum kelishigi qo‘sishimchasini belgi va belgisiz qo‘llanilishi haqida muommolar, jo‘nalish kelishigi –ga (-ka, -qa) qo‘sishimchalarida imlo qoidalarga amal qilgan holda yozish ko‘nikmasini to‘g‘ri shakllantirish bir qancha muommolarni keltirib chiqardi. Bundan ko‘rinib turibdiki, nazariy bilimlarni amaliyotda metodlar orqali o‘rgatish boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun birmuncha qulaydir. Yuqoridagi metodlardan foydalangan holda 4-sinf ona tili darslarida berilgan mavzularni tez va to‘liq tushuntirish imkoniyati mavjud. Darsda interaktiv usullar qo‘llashni shunday tashkil etish kerakki, ya’ni dars o‘tish jarayonida o‘quv materiallarining ma’lum bir qismi o‘quvchilar tomonidan mustaqil o‘rganilsin. Bundan kelib chiqadiki, mavzu qachonki to‘liq va tez tushuntiriladi, yangi metod va usullardan foydalanilgandagina.

REFERENCES

1. I. Ziyoyev. Kelishik formalarining funksional almashinuviga doir O‘A.1996
2. Nargiza Erkaboyeva “O‘zbek tilidan ma’ruzalar to‘plami” 2012
3. D. Hamroyev, D. Muhammedova, D. Shodmonqulov, X. G‘ulomova “Ona tili” Toshkent “Iqtisod-moliya” 2007
4. Y. Tojiyev. “Fe’llarda o‘timli-o‘timsizlik haqida” 1957
5. Ona tili darslik 4-sinf.